

## QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ass. O‘.A.Rahmonov,  
v.f.n. ass. Z.F.Normuradova talaba  
S.M.Arzikulova,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada quyonlarning biologik xususiyatlari bo'yicha adabiyot ma'lumotlarining tahlil qilinib, shu asosida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Go'sht, teri, tivit, jun, momiq yung, jinsiy, tulash, eksterer, bo'rdoqi, koprofagiya.

Quyonlar zoologik klassifikatsiya bo'yicha kemiruvchilar turkumiga, tovushqonlar oilasiga, quyonlar turiga mansub. Yovvoyi quyonlar janubiy mamlakatlarda urchitilgan. O'rta asrlarga kelib, asta-sekin butun Yevropa mamlakatlarida, hozirgi davrda esa quyonlar yer kurrasining deyarli barcha hududlaridagi mamlakatlarda urchitilmoqda. Ko'pgina hududlarda yovvoyi quyonlar uchraydi. Yovvoyi quyonlar tunda yoyilib yoki juft bo'lib o'tlashadi.

Xonaki quyonlar yovvoyi ajdodlaridan ko'pgina belgilari bilan farq qiladi. Ular tirik vazni, go'shtdorligi, tez yetiluvchanligi, jun qoplamining sifati kabi xo'jalik – foydali belgilari bilan ustunlik qiladi.

Quyonlar 3-4 oyga to'lganida jinsiy va jismoniy jihatdan voyaga yetiladi. Urg'ochi quyonning homiladorlik davri 29-31 kun davom etadi.

Mahsulot yetishtirilishiga ko'ra quyonlar 3 turga bo'linadi: go'sht, go'sht-teri (mo'yna) va yung olinadigan quyonlar.

Bundan tashqari yana yung qoplamasiga ko'ra: qisqa yungli, me'yoriy yungli va uzun yungli (momiqli); tanasining kattaligiga ko'ra: yirik, o'rta va mayda. guruhlariga ajraladi. Hozirgi vaqtda 60 dan ortiq quyon zotlari boqiladi.

Quyonlar bundan 2000 yillar ilgari xonakilashtirish asosida yaratilgan bo'lib, yovvoyi quyonlarning asl vatani O'rta yer, Qora dengiz atrofida bo'lib bu yerlar muloyim iqlimli xududlar hisoblanadi. Quyonlar dastlab Ispaniya, Fransiya hududlarida yashagan. Xonakilashtirilgandan keyin butun Yevropa, Osiyo, Avstraliya va Amerika qit'alariga tarqalgan. Osiyo va Yevropaning ko'pgina hududlarida quyonlarning yovvoyi ajdodlarini hozirgi paytda ham uchratish mumkin.

«Ispaniya» so'zi «Quyonlar qirg'og'i» ma'nosini anglatadi. Yovvoyi quyon bilan uy quyonining farqi bor. Yovvoyi quyonlar mahalliy hududlarimiz sharoitida yiliga 2-3 marta 3-5 boshdan ko'zi ochiq, tuk bilan qoplangan, bemalol yuradigan bola tug'adi. Yevropa mahalliy o'rmonlarida yovvoyi yashovchi quyonlar bo'g'ozligi 52 kun bo'lib, ular xonaki quyonlardan boshqa turligi bilan farq qiladi. Yovvoyi quyonlar bilan xonaki quyonlarni juftlab avlod olib bo'lmaydi. Quyonlar tez yetiluvchanligi, bola berishi, bolalash davriyligining yo'qligi, bolalarning tez voyaga yetishi bilan farq qiladi.



1-rasm. Yovvoyi quyonlar.

Zotlar qishloq xo'jalik hayvonlarining kishilar mehnati tufayli, bir xil sharoitda tarkib topgan alohida guruxlaridir. Zotlar kishilar jamiyatining ma'lum davrida hayvonlarning muayyan talablariga samarali holda javob bera olishi asosida yaratiladi va shu talablarni qondirish xususiyatlariga ega bo'ladi. Quyon zotlarning eng karakterli xususiyatlari: Qishloq xo'jalik hayvonlari ichida shu guruhning son jihatidan ko'pligi kelib chiqishi jihatidan umumiyliigi, anatomik, morfologik, fiziologik qishloq xo'jalik uchun foydali belgilaridagi o'xshashliklar, hayvonlarning ma'lum yashash sharoitiga moslashishi kabilardir.

Zotdor quyonlarni yaxshi sharoitda urchitish lozim. Yangi sharoitga ko'chirilgan quyonlar iqlim va tabiiy-iqtisodiy sharoitlar ta'sirida o'zgaradi. Ammo yaxshi boqilsa, yaxshi saqlansa, zotni sifatini saqlab qolishi mumkin. Zotni doimiy yaxshilanishida mukammal tanlash va saralash, xamda mashhur qatorlar va oilalardan to'g'ri foydalanishning ahamiyati katta. Quyon zotlari mahsuldorlik belgilariga ko'ra: go'shtdor, go'sht-teri, tivit yo'nalishlariga bo'linadi. Shuningdek jun qoplaminig uzunligiga ko'ra:

o'rta jundor;

uzun jundor;

hamda qo'shimcha ravishda tivitli;

dekorativ yo'nalishlarga bo'linadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo hududida har tomonlama e'tiborga taaluqli bo'lishidan tashqari, tabiiy iqlimi tez o'zgaruvchan, ya'ni yozi issiq, qishi keskin sovub ketuvchi hudud hisoblanadi. Shuning uchun ham urchitiladigan quyon zotlari sinovdan o'tkazilishi lozim. Bizning sharoitimizga moslashib urchitilayotgan bir nechta quyon zotlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Quyonlardan olinadigan mahsulotlarga qarab, ular ikkita katta guruhga ajratiladi. Birinchi guruh go'sht va teri beradigan quyon zotlari. Bu guruhga juda ko'p quyonlar kiradi. Ular quyidagilar: oq velikan, kulrang velikan, rossiya marderi, shinshilla, kapalaksimon, olmaxonsimon, kumushsimon, qora qo'ng'ir, vena zangorisi, rus gornostay, novozelandiya oqi, kaliforniya quyoni, shanshan, gigant shinshilla, flandra, daniya quyoni, belgiya yovvoyisi, oq muskat, burgundiya qizili, fransiya papilioni, polsha oqi, reke, fransiya qo'ysimoni, oqland va boshqalar.

Ikkinchi guruhga tivit beradigan quyonlar kirib, bu guruhning vakillari kam tarqalgan, zotlari ham ko'p emas. Bu guruhga oq momiq beradigan quyon, angor zoti, kirov zoti va boshqa vakillari kiradi.

Yosh havaskor quyonboqar, albatta zotlar bilan tanishishdan oldin quyonning tana tuzilishini ham bilib olishi kerak bo'ladi. Chunki quyon zotlarini baholashda eksterer belgilari muhim ko'rsatkichdir.

Xonaki quyonlar.

Tuksiz tug'ilgan quyoncha tanasi momiq bilan hayotining birinchi haftasi davomida burkana boshlaydi, 9-10-kunga kelib ko'zi ochiladi, 15-20 kundan keyin inidan chiqib, onasi iste'mol qilayotgan yemdan istemol qila boshlaydi. Biroq, toki ajratib qo'yilganiga qadar onasini emishda davom etaveradi. 18-20 kun o'tgach sut tishlarining almashinish jarayoni boshlanib, ushbu jarayon birinchi oy oxirida yakuniga yetadi. Aksariyat ona quyonlar sersut bo'lib, kam bezovta qilinsa, bolalari uzoq vaqt o'z inlarida qolaveradi.

Yangi bolalagan urg'ochi 2-3 kundan so'ng jinsiy mayil bildirib, takror urug'lanishi mumkin. Quyonboqarlar quyonning ushbu xususiyatidan, quyonlar bosh sonini ko'paytirish maqsadida unumli foydalanadilar. Quyon butun hayoti davomida tulab boradi. Tulash jarayoni: ilk bor quyoncha bir oyga to'lganida; ikkinchi marotaba 3,5-4,5 oyga to'lganida; uchinchi bor 7-7,5 oyga to'lganida bo'lib o'tadi.

Bundan tashqari mavsumiy, ya'ni bahor va kuz oylarida ham tulash jarayoni bo'lib o'tadi. Quyonni bo'rdoqiga qo'yish va so'yish mobaynida tulash jarayonini hisobga olmoq lozim. So'yish fursati yetganida quyonning mavsumiy yoki yoshi bo'yicha tulash jarayonlari yakuniga yetgan bo'lishi kerak. Tulash mobaynida quyon momig'i oson ajraladi. Momiq olish uchun mo'ljallangan quyon zotini yetishtiruvchi quyonboqarlar jonivorning ushbu xususiyatini bilishi kerak. Bunday zot momiqlari har 2-2,5 oyda yulib olinadi.

Yaxshi boqilgan to'rt oyli quyon vazni 3-3,5 kg ga yetadi. Ya'ni, tug'ilgan fursatiga nisbatan 60 barobar og'ir bo'ladi. Quyonning hid bilish qobiliyati ko'rish qobiliyatiga nisbatan sezilarli rivojlangan. Ona quyon bolalari orasiga begona quyonchalar qo'shib qo'yilganida, ularning ranglaridan qat'iy nazar hidiga ko'ra ajratib olib, nobud qilishi bilan ushbu xususiyat o'z tasdig'ini topadi. Quyon yemni ham hidiga ko'ra ajratib qo'yadi.

Yemning yangi turiga ehtiyotkorona munosabat bildirib, hidiga ko'nikishi uzoq kechadi. Jonivorni yemning yangi turiga o'rgatish amali kishidan sabr-toqat talab qiladi.

Quyvon tabiatan o'z uyasini yer qazib tayyorlaydi. Shu bois ham katakka qamalgan homilador quyvon, bolalashdan oldin, katakning eng pastg'am va qorong'i joyini qidiradi. Modomiki shunday ekan, katak tug'ruqxonasining eshigi yaxlit, ya'ni teshik-derazasiz bo'lishi, poliga o'rnatiladigan panjara esa yorug'xonadagiga nisbatan pastroq qilib yotqizilishi yoki umuman olib qo'yilishi lozim.

Ona quyvonning sutliligi yangi tug'ilgan bolalarining holatiga ko'ra belgilanadi. Sersut urg'ochining quyvonchalari uyada tinch yotib, tanachalari dumaloq, terilari ajinsiz silliq va yaltiroq bo'ladi. Bunday quyvonchalar tez o'sadi.

Quyvonning sutliligini boshqacha usul qo'llab, ya'ni bolalagan urg'ochini beliga yotqizib, sut bezlarini barmoqlaringiz bilan ezib ko'rib ham aniqlashingiz mumkin. Urg'ochi sersut bo'lsa, yelinidagi sut yirik tomchi ko'rinishida sizib chiqadi.

Sutlilik darajasiga parvarish sharoiti, yem sifati, quyvonning yoshi, zoti, nechanchi bor bolalaganligi, yil fasli kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Yoz faslida ko'k va shirador yem-xashak miqdori ko'p bo'lishi bois ona quyvon sersut bo'ladi. Ona quyvonning maksimal sersutlik davri 3-4 marotaba bolalaganidan so'ng keladi. Uning haddan tashqari semirib ketishi va kam harakatchan bo'lishi sutlilik darajasining pasayib ketishiga olib keladi. Semirib ketgan urg'ochi urug'lanish va bolalash qobiliyatini yo'qotadi. Buning oldini olish uchun esa jonivorga beriladigan yuqori oqsilli (don, kombikorm kabi) yemlar miqdorini kamaytirib, ko'k va shirador yemlar miqdorini oshirish, ko'proq harakatlanish imkonini yaratish lozim.

Quyvon, ayrim jonivorlar kabi, tunda va erta tongda chiqargan najasini iste'mol qiladi. Bu holat fanda **koprofagiya** deb ataladi. Kunduz kungi najas qattiq, quruq va soqqasimon, tungi najas esa yumshoq va nam bo'lib, soqqalar shakli buzilgan kichik to'plamlar ko'rinishiga ega bo'ladi. Tungi najas tarkibidagi protein kunduz kungi najasga nisbatan 3,5 barobar ortiq bo'ladi, to'qimalar miqdori esa 2 barobar kam bo'lib V guruhiga mansub vitamin va minerallarga boy bo'ladi. Yumshoq (tungi) najas quyvonxona ichida deyarli ko'rinmaydi, negaki quyvon uni to'g'ridan-to'g'ri o'z orqa hojat yo'lidan o'z iste'mol qilib yuboradi. Buning uchun u old oyoqlarini ikki yonga tashlab egiladi va tumshuqchasini orqa oyoqlari orasidagi anal teshigiga yetkazadi.

Yosh quyvonchalarda koprofagiya, odatda, 23-24 kun o'tgach, ona sutidan tashqari boshqa yemlar bilan ham oziqlana boshlaganidan so'ng namoyon bo'ladi.

O'z najasini iste'mol qilishdan mahrum bo'lib o'sayotgan quyvonchalarning ulg'ayishi, najasi bilan oziqlanadigan quyvonchalarga nisbatan sekin kechadi. O'z najasini iste'mol qilishdan mahrum bo'lgan urg'ochi quyvonning homiladorligida hamda homilasining rivojlanishida og'ishlar ro'y berishi kuzatilgan.

O'zining tungi najasini iste'mol qilishi quyvon uchun sog'lom fiziologik holat bo'lib, oshqozonidagi yemning yaxshi hazm bo'lishi, organizmiga qo'shimcha oqsil va vitaminlar singishini ta'minlaydi. Lekin, quyvon najasida kasallik tarqatuvchi mikroblar ham bo'lishi mumkinligini yodda tutmoq lozim, shu bois quyvonning kasallikka chalinishini oldini olish maqsadida quyvonxona va kataklarning sanitar holati namunali tutilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. U.Sh.Ballasov, Sh.Q.Mamatimov Quyvonchilik boqish, parvarishlash, ko'paytirish va davolash bo'yicha tafsiyalar. Toshkent-2016.
2. B.A.Elmirov, A.K.Turdiyev, N.Nabiyev Quyvonchilik Monografiya Samarqand-2018
3. Mukhtorov E. A., Dilmurodov N.B. Changes In The Postnatal Ontogenesis Of Histological Indicators Of The Four-Headed Muscle Number Of Hisori Sheep// Nveo-natural volatiles & essential oils journal nveo //P 15705-15709
4. E.Mukhtorov, N.Dilmurodov//Changes in the postnatal ontogenesis of hisorian breed sheep// Innovative developments and research in education International scientific-online conference// Canada p 93-96
5. Yakubov Muzafar, Mukhtarov Elmurod// Some Hematological Indications in Fertile Cows// Central asian journal of theoretical and applied sciences- Apr 2022 P 107-110

6. Boboqulov Avazbek, Murodullayev Javohir, Muxtarov Elmurod// Qondagi albuminning turli shashroitlardagi ko'rsatkichlari// World scientific research journal// b 128-132
7. <https://agro-olam.uz/quyonning-biologik-hususiylatlari>

